

ORKESTRDA ISHLASH UCHUN GIJJAKCHILARNI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.018>

N.Madaminov
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: O‘zbek milliy simfonik va kamer orkestrlarining rivojlanishi bilan gijjak ijro etish ixtisosligiga bo‘lgan talab va talablar ham o‘zgarib, kengayib bormoqda. Zamonaviy gijjakchidan nafaqat yakkaxon yoki kichik ansambl ijrochisi, balki yirik orkestr tarkibida yuqori mahoratli, moslashuvchan va ijodiy hamkor bo‘lishi kutilmoqda. Ushbu maqola oliy va o‘rta maxsus ta‘lim bosqichida gijjak ijro etish yo‘nalishi talabalarini milliy orkestr amaliyotiga tayyorlashning pedagogik modeli va asosiy tamoyillarini o‘rganadi. Muammo shundaki, an‘anaviy yakka ijro uslubidagi ta‘lim dasturlari ko‘pincha talabalarni orkestr muhitiga, uning o‘ziga xos texnik, intonatsion, ansambl va psixologik muammolariga tayyorlashda yetarli emas. Tadqiqot orkestr gijjakchisiga qo‘yiladigan maxsus talablarni - partiyani aniq o‘qish qobiliyati, yagona intonatsiya va tembr birligini saqlash, dirijyor imo-ishoralariga darhol javob berish, dinamik va agogik nuanslarni kuzatish, boshqa cholg‘u guruhlari bilan muvozanatni his qilish qobiliyatlari - aniqlab, ularni shakllantirishning o‘quv-uslubiy yondashuvlarini taklif qiladi. Maqolada gijjakning orkestrdagi rolini chuqur o‘rganish, orkestr partiyalarini o‘rganishning metodikasi, ansambl mashg‘ulotlarini tashkil etish, dirijyor bilan hamkorlik qilish asoslari, shuningdek, maqom va an‘anaviy usullar bilimlarini orkestr matnlarini talqin qilishda qo‘llash masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli orkestr gijjakchisini tarbiyalash faqat texnik mashqlar orqali emas, balki maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks, integratsiyalashgan pedagogik yondashuv orqali amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: gijjak ijro etish pedagogikasi, orkestr tayyorgarligi, ansambl mahorati, dirijyor bilan hamkorlik, intonatsion birlik, milliy orkestr madaniyati

PEDAGOGICAL BASIS OF TRAINING GIZJAK PLAYERS FOR WORKING IN AN ORCHESTRA

N.Madaminov
Kokand State University

Abstract: With the development of the Uzbek national symphony and chamber orchestras, the requirements and demands for the specialty of gijjak performance are also changing and expanding. A modern gijjak player is expected to be not only a soloist or a small ensemble performer, but also a highly skilled, flexible and creative partner in a large orchestra. This article examines the pedagogical model and basic principles of preparing students of the gijjak performance direction for national orchestra practice at the stage of higher and secondary specialized education. The problem is that educational programs in the traditional solo performance style are often insufficient in preparing students for the orchestral environment, its specific technical, intonational, ensemble and psychological problems. The study identifies the special requirements for an orchestral gijzhjak - the ability to clearly read the part, maintain a single intonation and timbre unity, respond immediately to the conductor's gestures, observe dynamic and agogic nuances, and feel the balance with other instrumental groups - and suggests educational and methodological approaches to their formation. The article considers the issues of in-depth study of the role of the gijzhjak in the orchestra, the methodology for studying orchestral parts, organizing ensemble training, the basics of cooperation with the conductor, as well as the application of knowledge of maqom and traditional methods in interpreting orchestral texts. The results of the study show that the education of a successful orchestral gijzhjak is carried out not only through technical exercises, but also through a complex, integrated pedagogical approach aimed at developing special competencies.

Keywords: pedagogy of gijjak performance, orchestral training, ensemble skills, cooperation with the conductor, intonational unity, national orchestral culture

Kirish

O'zbekiston milliy musiqiy madaniyatining global kontekstda namoyon bo'lishida simfonik va kamer xarakterdagi milliy orkestrlar muhim vazifani bajaradi. Bu kollektivlar nafaqat an'anaviy merosning yirik shakllarini saqlaydi, balki zamonaviy kompozitorlar ijodiyatiga yangi imkoniyatlar yaratadi, milliy ohang va G'arb musiqa an'alarini uyg'unlashtirishda samarali platformaga aylanadi. Ushbu jarayonda gijjak - o'zbek milliy orkestrining eng muhim, timbral jihatdan rang-barang va ifodali ovozlardan biri sifatida - alohida o'rin tutadi.

Biroq, oliygoh va kollejarimizda gijjakchalik ta'limi, qoida tariqasida, an'anaviy yakka ijro va kichik ansambl amaliyotiga yo'naltirilgan bo'lib, yirik orkestr tarkibida ishlashning o'ziga xos jihatlari yetarlicha yoritilmaydi. Bu esa bitiruvchi yosh gijjakchilarni professional orkestrlar safiga qo'shilganda muammolarga duch kelishiga olib keladi: notani guruhi bilan bir vaqtda o'qiy olishmaslik, dirijyor qo'liga ko'rib bo'lmagan holda faqat o'z partiyasiga e'tibor qaratish, ansamblidagi muvozanat hissini rivojlanmaganligi, dinamik diapazonda

ovozni boshqarish mahoratining etishmasligi va hokazo. Natijada, juda qobiliyatli yakkaxon ijrochi ham orkestrda samarali ishlay olmasligi mumkin.

Shuning uchun, ushbu maqolaning magsadi orkestr amaliyotiga ixtisoslashtirilgan gijjakchi musiqachilarni tayyorlashning pedagogik asoslarini ishlab chiqish va tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqot quyidagi asosiy savollarga javob izlaydi: professional orkestr gijjakchisining asosiy kompetensiyalari qanday? Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun gijjak ijro etish darslarida qanday o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish kerak? O'qituvchi qanday maxsus mashq va usullardan foydalanishi mumkin? Orkestr madaniyatini, jamoaviy fikrlashni shakllantirish uchun qanday tashkiliy shakllar samarali bo'ladi? Muammoning dolzarbligi shundaki, oliy ta'lim standartlari talabalarni "orkestr ijro etish" amaliyotiga tayyorlashni nazarda tutsa-da, bu tayyorgarlikning mazmuni va metodikasi ancha yorqin emas va ko'pincha mavjud ustoz-shogird darslarining tarkibiy qismiga aylanmagan. Ushbu ishda taklif etilgan yondashuvlar an'anaviy pedagogik qadriyatlarni saqlab, ularni zamonaviy orkestr talablari bilan uyg'unlashtirishga intiladi.

Usullar

Tadqiqotning metodologik asosini amaliy pedagogik tajriba, kuzatuv va tahlil tashkil etdi. Tadqiqot doirasida milliy orkestrlarda faoliyat yuritayotgan 15 nafar gijjakchi musiqachi bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazildi, ularning professional yo'lini, oliy ta'lim davridagi tayyorgarlikning kamchiliklari va orkestrda ishlashning o'ziga xos qiyinchiliklari haqida ma'lumot to'plandi.

Shuningdek, Qo'qon davlat universiteti cholg'u ijrochiligi yo'nalishi bo'yicha dars jarayonlari kuzatildi. Qiyosiy tahlil uchun g'arb skripka ijro etish pedagogikasidagi orkestr tayyorgarligi bo'yicha o'quv-adabiyotlar va uslubiyatlar o'rganildi va ularning milliy an'ana va gijjak ijro etish texnikasiga moslashtirilishi mumkin bo'lgan jihatlari ajratib ko'rsatildi.

Tadqiqotning amaliy qismi sifatida konservatoriyaning 2-3 kurs talabalari uchun "Orkestr gijjakchisi" nomli maxsus ixtiyoriy kurs loyihasi ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi. Kursning asosiy modullari quyidagilardan iborat edi: "Orkestr partiyalarini o'rganish metodikasi", "Ansambl intonatsiyasi va tembri", "Dirijyor imo-ishoralari bilan ishlash", "Orkestr partiyalarida maqom va ritmik usullar". Har bir modul nazariy tushuntirish, maxsus tanlangan partiyalarni o'rganish va sinov ansambli bilan amaliy mashqlarni o'z ichiga olardi. Darslar jarayonida talabalarning partiyani o'qish tezligi, dinamik farqlarni bajarish aniqligi, dirijyorga reaksiyasi va ansamblidagi eshitish qobiliyati kuzatildi va baholandi.

Kurs yakunida talabalar bilan yakuniy suhbatlar o'tkazilib, ularning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari, qiyin hisoblangan jihatlar haqida fikrlari

o'rganildi. O'qituvchilarning fikr-mulohazalari ham qayd etildi. Olingan barcha ma'lumotlar sifatli tahlil qilish va umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlandi.

Natijalar

Tadqiqot jarayonida professional orkestr gijjakchisini shakllantiruvchi quyidagi o'ziga xos kompetensiyalar aniqlandi va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar sinovdan o'tkazildi.

Birinchidan, texnik moslashuvchanlik. Orkestr partiyalari yakkaxon repertuardan farqli o'laroq, juda xilma-xil bo'lishi mumkin: tez o'tmalar, uzun legato frazalar, pizzicato, spiccato kabi turli kamon usullarining tez almashinuvi, yuqori registrda piano ijro etish talabi va hokazo. An'anaviy dastur ko'pincha ma'lum bir texnikaga ixtisoslashgan bo'lib, orkestrda esa gijjakchi har qanday texnikani darhol va aniq bajarishga tayyor bo'lishi kerak. Maxsus kurs davomida turli xil uslubdagi qisqa parchalardan iborat "texnik etudlar" to'plamidan foydalanilishi talabalarning kamon va chap qo'l tezligini, vaqt o'tishi bilan ularning ijro ishonchini oshirdi.

Ikkinchidan, ansambl eshitish va intonatsion birlik qobiliyati. Bu eng murakkab va muhim kompetensiya hisoblanadi. Yakkaxon ijrochi asosan o'z ovozigacha quloq solsa, orkestr gijjakchisi butun guruh ovozi, ayniqsa birinchi gijjak partiyasini va asosiy hamoniy podstavijani (masalan, tanbur, dutor, pianino partiyalarini) doimiy ravishda eshitishi kerak. Sinov kursida talabalar juftlik va trio sifatida mashq qilishga majbur bo'lishdi, bunda bir cholg'u doimiy ostinato ijro etar, ikkinchisi melodiyaning, uchinchisi esa bezaklarni chalardi. Bu mashq ularning bir nechta ovozni bir vaqtda idrok etish va o'z partiyasini ansambl ovozigacha aniq moslashtirish qobiliyatini rivojlantirdi. Intonatsiya muammosi alohida e'tiborga olindi, chunki bir nechta gijjak bir ovozni chalayotganda eng kichik pardozi farqi ham seziladi. Bir ovozni ijro etish mashqlari, bitta drone (masalan, tanburning bo'g'in torlari) asosida ijro etish mashqlari samarali bo'ldi.

Uchinchidan, dirijyor bilan ishlash mahorati. Yosh musiqachilar ko'pincha partituraga yoki o'z partiyasiga qarashni odat qilgan bo'ladi, dirijyorni faqat boshlash va to'xtash signali sifatida biladi. Amalda esa dirijyor har bir frazaning boshlanishi, tezligining o'zgarishi, dinamikaning oshishi yoki pasayishi, to'xtash joylari haqida ko'rsatma beradi. Kurs davomida o'qituvchi maxsus dirijyorlik qo'l harakatlarini namoyish qilib, talabalardan darhol reaksiya ko'rsatishni talab qildi. Soddadan murakkabgacha bo'lgan mashqlar orqali talabalarda dirijyor qo'lga periferik ko'rish va undan kelgan ma'lumotni ijroga darhol o'tkazish ko'nikmasi shakllantirila boshlandi.

To'rtinchidan, orkestr madaniyati va psixologik tayyorgarlik. Orkestr - bu birlashgan mehnat jamoasi bo'lib, unda individualizm emas, balki jamoa manfaatlari ustuvor hisoblanadi. O'z navbatini kutish, boshqa guruhlar chalayotganda jim o'tirish, xatoga yo'l qo'ymagan holda dastur oxirigacha diqqatni saqlash kabi

fazilatlar professional xulq-atvordir. Sinov guruhida darslar ansambl shaklida o'tkazilganligi sababli, talabalarda jamoada ishlash, hamkasblariga nisbatan mas'uliyat hissi, birgalikda musiqiy maqsadga erishish quvonchi kabi hissiyotlar shakllandi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, samarali orkestr gijjakchisini tayyorlash murakkab, ko'p qirrali pedagogik vazifadir. Bu faqatgina "qo'shimcha dars" yoki "orkestr amaliyoti" kursi bilan cheklanib bo'lmaydi. Buning uchun asosiy gijjak ijro etish darsining mazmuni va tamoyillarini qayta ko'rib chiqish, orkestr kompetensiyalarini shakllantirishni uning tarkibiy qismiga aylantirish zarur.

An'anaviy ustoza-shogird darsi odatda ma'lum bir asar (masalan, maqom yo'li)ni mukammal o'rganishga qaratiladi. Bu asosiy pedagogika bo'lib qolishi kerak, chunki u chuqur ma'naviy-estetik tamoyillarni o'rgatadi. Biroq, unga parallel ravishda "orkestral texnika" elementlarini kiritish mumkin va zarur. Masalan, maqom yo'lini o'rganish bilan birga, undan olingan qisqa motivni turli dinamikada (pp, p, mf, f), turli tempda ijro etish mashqlarini bajarish, uning ohangini gijjakning boshqa registrlariga ko'chirish, uni pizzicato yoki turli kamon usullarida ijro etish talabalarni kelajakdagi orkestr partiyalari uchun texnik jihatdan tayyorlaydi.

Yana bir muhim jihat - repertuar. Gijjakchilar ta'limida, odatda, klassik an'anaviy asarlar (maqomlar, bastalangan doston qismlari, zamonaviy kompozitorlarning yakkaxon pyesalari) o'qitiladi. Orkestrga tayyorlash uchun esa bu repertuarga zamonaviy o'zbek kompozitorlarining orkestr asarlari partiyalarini, shuningdek, klassik g'arb yoki rus kompozitorlarining milliy orkestr uchun qayta ishlangan asarlaridan parchalarini qo'shish juda samarali bo'ladi. Bu nafaqat texnikani boyitadi, balki talabalarni turli uslub va musiqa tiliga o'rgatadi.

Dirijyor bilan ishlash mahoratini o'rgatish esa musiqa ta'limining barcha bosqichlarida, hatto bolalar musiqa maktablarida ham boshlanishi kerak. O'qituvchi darsda o'zini dirijyor sifatida ko'rsatishi, talabadan ko'z bilan aloqa qilishni talab qilishi, qo'l harakati bilan temp o'zgarishlarini ko'rsatishi mumkin. Bu odatni erta boshlash orkestrga kirgan yosh musiqachi uchun katta yordam bo'ladi.

Nihoyat, psixologik tayyorgarlikni unutmaslik kerak. Orkestrda ijro etish - ma'lum darajada stressli vaziyatdir. Xato qilish qo'rquvi, dirijyor yoki kontsertmeyster nazaridan qo'rqish kabi omillar ijrochi mahoratini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun pedagog o'quv jarayonida ishonch muhitini yaratishi, xatolarni tuzatishni normal holat sifatida ko'rsatishi va talabalarni jamoada ishlashga ruhlantirishi lozim. Sinov chiqishlari, jamoadoshlari oldida kichik parchalarni ijro etish, ularning fikrini so'rash - bularning barchasi talabaning ijro ishonchini oshiradi va sahnaga psixologik tayyorlaydi.

Xulosa

Milliy orkestrlarimizning sifat darajasini oshirish, ularning repertuari va ifoda imkoniyatlarini kengaytirish, avvalo, yuqori malakali, har tomonlama tayyorlangan musiqachilar - jumladan, gijjakchilarni tarbiyalash bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida bu tayyorgarlik ko'pincha intuitiv ravishda, o'qituvchining shaxsiy tashabbusi va orkestr tajribasiga bog'liq holda amalga oshirilmqoda.

Ushbu maqolada taklif etilgan pedagogik yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, orkestr gijjakchisini tayyorlash - bu an'anaviy yakka ijro asoslarini inkor qilmasdan, unga yirik jamoada ishlashning o'ziga xos ko'nikma va kompetensiyalarini qo'shish jarayonidir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun quyidagi choralarni ko'rish zarur:

Birinchi navbatda, gijjak ijro etish yo'nalishi bo'yicha standart o'quv dasturini qayta ko'rib chiqish va unga "Orkestr gijjak ijrochiligi asoslari" kabi maxsus modul yoki fan sifatida integratsiyalashgan mavzularni kiritish.

Ikkinchidan, o'quv-metodik adabiyotlar ishlab chiqish: milliy orkestr partiyalaridan iborat mavzuli to'plamlar, turli qiyinlikdagi ansambl mashqlari, dirijyorlik imo-ishoralarini o'rganish uchun qo'llanma va boshqalar.

Uchinchidan, o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashishini tashkil etish, o'z faoliyatida orkestr amaliyotiga katta e'tibor berayotgan pedagoglar bilan seminar va master-klasslar o'tkazish.

Gijjak - o'zbek milliy musiqasining timbral yurak urishidir. Orkestr esa bu yurak urishini kuchaytiradigan, uni rang-barang ohanglar olami bilan uyg'unlashtiradigan muhim organ. Ushbu muvozanatli va go'zal ovozni dunyoga yetkazish uchun orkestr estradasiga nafaqat texnik jihatdan zo'r, balki hamkorlik ruhida, orkestr madaniyati bilan tarbiyalangan, dirijyor qo'ldan veryovka oladigan yangi avlod gijjakchilarini tayyorlash - bugungi kunning eng dolzarb pedagogik vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mustafоеv S. M. et al. THE INTERCONNECTION BETWEEN SOUNDS, MUSICAL MEMORY, AND THE SENSE OF MELODY AND HARMONY //European Review of Contemporary Arts and Humanities. - 2025. - T. 1. - №. 4. - C. 3-8.
2. Sharobiddinova M. et al. THE ROLE OF UZBEK MUSICAL INSTRUMENTS IN PEDAGOGY, PERFORMANCE, AND CULTURAL IDENTITY //European Review of Contemporary Arts and Humanities. - 2025. - T. 1. - №. 2. - C. 12-16.
3. Boboyev V. et al. MICROTONAL INTONATION AND ORNAMENTATION IN THE KASHKAR RUBAB MAQOM REPERTOIRE

//European Review of Contemporary Arts and Humanities. - 2025. - T. 1. - №. 4. - C. 35-44.

4. Ktaybekova D. J. et al. METHODOLOGICAL APPROACHES APPROPRIATE TO AGE CHARACTERISTICS IN THE ACQUISITION OF DUTOR CREATIVITY AND PERFORMANCE SKILLS //European Review of Contemporary Arts and Humanities. - 2025. - T. 1. - №. 5. - C. 9-14.

5. Berdikhanova D. M. et al. PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' ARTISTIC THINKING IN DUTOR PERFORMANCE //European Review of Contemporary Arts and Humanities. - 2025. - T. 1. - №. 5. - C. 4-8.

6. Qurbonova S. et al. ANALYSIS OF ORNAMENTATION IN UZBEK MAQOM VOCAL PERFORMANCE //European Review of Contemporary Arts and Humanities. - 2025. - T. 1. - №. 5. - C. 15-19.

7. Jurayev I. et al. A SYSTEMATIC PEDAGOGICAL APPROACH TO MAQOM ENCULTURATION IN UNDERGRADUATE VOCAL STUDIES //European Review of Contemporary Arts and Humanities. - 2025. - T. 1. - №. 5. - C. 34-41.

8. Xolnazarovich, B. X. (2024). Badiiy Matn Va uning Lingvopoetik Xususiyatlari. Miasto Przyszłości, 51, 298-303.

9. Xolnazarovich, B. X. (2020). Explanation of yurt building terms with through semantic methods. Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>, 9, 06.

10. Berdiev, H. (2020). Лингвопоэтика Масалалари Тадқиқида “Девону Луғотит Турк” Нинг Ўрни. Scienceproblems. uz, 2(2), 7-7.

11. Бердиев, Х. Х. (2016). Метафорические термины в лексике юртовозведения. Язык в сфере профессиональной коммуникации.— Екатеринбург, 2016, 73-76.

12. Xolnazarovich, B. X. (2024). “DEVON-U LUG ‘OTIT TURK” VA UNDAGI ADABIY PARACHALAR TADQIQI HAQIDA. FAN VA TA'LIM INTEGRATSIYASI (INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION), 2(3), 115-120.

13. Xolnazarovich, B. X. (2024). THE POSITION OF “DEVON-U LUG ‘OTIT TURK” IN RESEARCHING LINGVOPOETII ISSUES. FAN VA TA'LIM INTEGRATSIYASI (INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION), 2(2), 41-48.

14. Berdiyev, X. X. (2024). «DEVON-U LUG ‘OTIT TURK» DAGI SHE'RLARDA HOJIB VA RADIF SAN'ATLARI. Philological research: language, literature, education, 4(4), 13-15.

15. Odinayeva, F., & Berdiyev, X. (2024). SOME COMMENTS ON THE LINGUISTIC AND POETIC CHARACTERISTICS OF SHAVKAT RAHMAN'S POEMS. *Modern Science and Research*, 3(5), 101-103.

16. Xolnazarovich, B. X. (2025). FOLKLOR ASARLARIDA O'TOVSOZLIKKA DOIR BADIY MA'LUMOTLARNING IFODALANISHI. *Ustozlar uchun*, 1(1), 581-585.

17. Бердиев, Х. Х., & Ашурова, З. Ш. (2020). К ПРОБЛЕМЕ СОПОСТАВИТЕЛЬНОГО АНАЛИЗА ТЕРМИНОВ ЮРТОСТРОИТЕЛЬСТВА. *ББК 72+ 74 М43*, 488.

18. Бердиев, Х. Х. (2017). ЮРТОСТРОИТЕЛЬСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ ИССЛЕДОВАНИЯ ОТРАСЛЕВОЙ ЛЕКСИКИ. In *Духовность и ментальность: экология языка и культуры на рубеже XX-XXI веков* (pp. 32-35).

19. Sheraliyevna, N. D. (2023). BADIY ASARLARDAGI SHAXSGA TEGISHLI ZOOMORFIZMLARNING METAFORA YORDAMIDA SHAKLLANISHI. *2023 yil 6-son* (142/1), 6(139), 5-10.